



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 636 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar 5 564 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 15 589,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 9,2 % ga oshdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 610,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 14 979,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 857,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 373 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar 32 tani, kichik korxona va mikrofirmalar 2 341 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 476,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 8 197,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 96,7 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Tuproqqal'a (12,6 m.), Qo'shko'pir tumanlari (2,2 m.), Urganch shahri (2,1 m.), Yangibozor (2,2 m.), Bog'ot (138,1 %) va Shovot tumanlarida (132,6%) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 500 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar 1 496 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 12 393,3 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 15,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.



Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: +998622246516 (9090)	Ijrochi: S.Kurbonova Tel: +998622246509 (9041) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	---	--